



"ADABIYOT O'QITISH METODLARI "

Xusenova Aziza Shamshod qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim metodi tushunchasining mohiyati adabiyot o'qitish metodlari va adabiyot o'qitishning interfaol usullari haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, metod, metodika, ta'lim jarayoni, ko'rsatmali bayon metodi ramziy qiyoslash metodi, xulosalash metodi.

**Аннотация:** В данной статье говорится о сущности понятия образовательного метода, методов преподавания литературы и интерактивных методов преподавания литературы.

**Ключевые слова:** литература, метод, методика, учебный процесс, метод инструктивных высказываний, метод символического сравнения, метод вывода.

**Annotation:** This article talks about the essence of the concept of educational method, methods of teaching literature and interactive methods of teaching literature.

**Keywords:** literature, method, methodology, educational process, instructional statement method, symbolic comparison method, conclusion method.

**KIRISH:**

"Adabiyot yashasa millat yashaydi" (Cho'lpon). Darhaqiqat, millat ruhini, kelajagini tarbiyalaydigan, madaniyatini shakllantirib, boyitadigan vosita bu adabiyotdir. Adabiyot o'zida xalqning etnik-estetik xotirasini, ma'naviy-axloqiy o'zligini saqlaydi. Shu bois insonlar tafakkurining yuksalishida adabiyotning o'rni beqiyosdir. O'quvchilar va izlanuvchilar orasida adabiyot o'qishni keng miqyosda rivojlantirish va tarqib etish uchun adabiyot o'qitish ko'nikma va malakasini shakllantirish joiz. Shu jumladan, hozirgi paytga kelib "Adabiyot o'qitish metodikasi" fani ham katta ahamiyat kasb etsadi. Bu fan bo'lajak filologlarni kelajakda shugullanadigan ishlariga zamon talablari darajasida tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan fandır. "Metod" atamasi yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, yo'l; tadqiqot, o'qitish, bayon etish usuli; xatti-harakat usuli; usul, usullar yig'indisi ma'nosini anglatadi.

Asosiy qism:

Adabiyot darslarida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati turlichadir. Aslida, shu turlicha faoliyat metodni tashkil etadi. Mavzuni oddiy bayon etib berish ham qaysidir metod turi hisoblanadi. Demak, metod pedagogik kategoriya sifatida o'quv-jarayonda ko'zlangan umumiy maqsadga erishishning yo'lini anglatadi.

Hozirgi kunda har qanday ta'lim metodining samaradorligini aniqlash uchun o'qitish jarayonida erishiladigan so'nggi natija aniq belgilab olinishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa, o'quvchining o'qitish boshlanishidan oldin qanday bilim, ko'nikma va malakalarga egaligini, ya'ni asos daraja yoki boshlanigich holat aniqlanishi lozim. Agar ta'lim jarayoning



birliigi sifatida bir soatlik dars olinadigan bolsa, o'quvchining boshlang'ich holati dars boshlanguncha bo'lgan davrda ega bo'lan bilim, ko'nikma, malakadan iborat bo'ladi. Ta'lim kechimining natijasi o'quvchida mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka hamda qadriyatlar tizimiga qilingan qo'shimchadan iborat bo'ladi.

S. I. Perovskiy, Ye.V. Golland o'qitish metodlarini tasnif etishda ta'lim manbalarini hisobga olishgan. Ular o'qituvchi nutqi, ko'rgazma qurol, darslik hamda qo'shimcha adabiyotlarni ta'lim manbalari sifatida qarab, ta'lim metodlarini uch guruhga ajratishgan:

- 1) Bilimlarni o'g'zaki bayon etish
- 2) Ko'rgazmali
- 3) Amaliy metodlar

Agar o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarga ko'rsatmali qurollar yordamida muayyan ta'limiy natijasi egallash uchun oldin o'zlashtirilgan bilimlarni eslab qolish va kerakli vaziyatda, ya'ni o'xshash vaziyat yuzaga kelgandan ishga solish yo'nalishida faoliyat ko'rsatishi ko'zda tutilsa ko'rsatmali bayon metodi asosida ish olib borilayotgan bo'ladi.

Ramziy qiyoslash metodi.

Mazkur metod ta'lim oluvchilarning obyekt va uning ramzi o'rtasidagi bo'g'liqlikni topishi va yaratishga yo'naltiriladi.

Metodning afzalliklari:

1. O'quvchini mantiqiy va obrazli fikrlashga o'rgatadi;
2. Obyekt tasvirini turli ramzlar orqali fikran tasavvur qilishga harakat qiladi;
3. Obyekt va uning timsolini hayolan yaratish ko'nikmasini shakllantiradi ;
4. Voqea-hodisalar, narsa-buyumlar o'rtasidagi sabab-natijalarning mazmuni va mohiyatini chuqur anglashga yo'naltiradi.

Bunda o'quvchilar obyektini ya'ni qiyoslanayotgan, o'xshatilayotgan narsa yoki voqea-hodisani grafik tarzda belgisi; so'z orqali; turli shakllardagi tasvirlar vositasida qiyoslashtirishlari mumkin. Masalan: Odil Yoqubovning "Ulug'bek Xazinasi " asaridagi Qalandar Qarnoqiy obrazini chaqmoqqa o'xshatilishi mumkin. Yoki Said Ahmadning "Qorako'z majnun " asaridagi Saodat ayani tuproqqa o'xshatsak bo'ladi. U tuproqdek pok, xokisor ammo qadrlanmagan inson obrazidir.

Xulosalash metodi

Afzalliklari:

1) Bu metod o'quvchida fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Aslida, yozuvchi nimani nazarda tutayotganligini anglashni, asar mazmun-mohiyatini to'laqonli tushunishni va o'z fikrini erkin bayon eta olish imkoniyatlarini beradi.

2) "Xulosalash " metodining afzalliklari shundaki, bu metod tinglovchilarga mustaqil fikrkay olish, asarda tasvirlanayotgan vaziyatlarga ijobiy baho bera olish ko'nikmalarini yaxshi shakllantiradi. Shu bilan birga asardan xulosa chiqarib, unga chiroyli yakun yasay olish malakasini ham oshirib boradi.

Masalan, O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" asari yakuni har qanday o'quvchini fikr yuritishga majburlaydi. Asarning bundan yakun topishi turli xil bahslarga sabab bo'ladi. Go'yoki, tugallanmay qolgan degan xulosaga ham olib boradi. Lekin bu asardan har kim o'z dunyoqarashidan kelib chiqib yakun yasaydi.



Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, metodlar bizga darsni yaxshi tashkillashtirish, dars vaqtidan mazmunli foydalanish, o'quvchini qiziqitira olishga yordam beradi. Aynan adabiyot fanida ham dars jarayonida kerakli metodlardan foydalanish mavzuni yaxshiroq tushunarli bolishini va mustahkamlanishini ta' minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi ". (Toshkent-2022) Qozoqboy Yo'ldosh. Muhayyo Yo'ldosh.
2. <http://arxiv.uz>